



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

“ISHONCH TELEFONI” QISSASIDA MUALLIF KONSEPSIYASI, BADIY MAQSADI

Zilola Haydarova

Jizzax Davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Maqolada Xayriddin Sultonning “Ishonch telefoni” qissasi poetikasi, muallif badiiy niyatining inkishofi haqida mulohaza qilingan. Qissa qahramonlari bugungi zamonamiz kishilari ekanligi, turfa taqdirlarning kechinmalari hamda iqrirlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ishonch telefoni, uch birlik qonuni, mutolaa zavqi, hasbi hol, izhor, iqrir, badiiy-konseptual funksiya, ramziylik, badiiy asar sabog‘i.

АВТОРСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ЗАМЫСЕЛ В ПОВЕСТИ «ТЕЛЕФОН ДОВЕРИЯ»

Зилола Хайдарова

*Джизакский государственный педагогический университет,
преподаватель*

Аннотация

В статье рассматривается поэтика рассказа Хайриiddина Султана «Горячая линия» и развитие художественного замысла автора. Персонажи рассказа — люди нашего времени, анализируются их переживания и признания о различных судьбах.

Ключевые слова: горячая линия, закон трех единиц, удовольствие от чтения, случай, выражение, признание, художественно-концептуальная функция, символизм, урок произведения искусства.

THE AUTHOR’S CONCEPT AND ARTISTIC INTENT IN THE NOVELLA “TRUST HELPLINE”

Zilola Haydarova

Jizzakh State Pedagogical University, Lecturer

Abstract

The article discusses the poetics of Hayriddin Sultan's story "The Helpline" and the development of the author's artistic intention. The characters of the story are people of our time, and their experiences and confessions of various destinies are analyzed.

Keywords: hotline, law of three units, pleasure of reading, case, expression, confession, artistic-conceptual function, symbolism, lesson of a work of art.

“Ishonch telefoni” – turfa taqdirlar, turfa kirdikorlar, turfa qiyofalar aks etgan, kezi kelganda bir-biridan eng arzon narsa – Mehrni qizg‘ongan insonlar haqidagi qissa.

Har qanday badiiy asarning yashovchanligini ta’minlaydigan uch birlik qonuni mavjudki, agar shu qonun mushtaraklik hosil qilmasa, badiiy yaratq tezda o‘quvchi yodidan ko‘tariladi. Bu haqda adabiyotshunos Shuhrat Rizayev shunday deydi: “Ahli ilm fikricha, har qanday asar – u badiiy adabiyotmi, kino yoki spektakl, ashula yo boshqa musiqiy bir asar, tasviriy yo monumental san’at yaratig‘imi, uch birlik qonuniga to‘kis mushtarak kelsa, u, shubhasiz, mumtoz namuna bo‘lib qoladi”. [3;3]

Adabiyotshunos olim fikrlarini davom etar ekan, qiyos uchun “O‘tkan kunlar” romani hamda Charli Chaplin filmlarini namuna sifatida keltiradi. Har ikkala san’at namunasining bugun ham seviklilikini ta’minlagan jihatlari – mutolaa zavqi, ibrat, moddiy nafi deya e’tirof etadi. “Ishonch telefoni” qissasi ana shu mushtaraklik qonuniyatiga to‘la javob bera oladi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan insonlar uchun mo‘ljallangan qissani qayta-qayta mutolaa qilgingiz kelaveradi, har gal yangi saboq olaverasiz.

Qolaversa, bugun kitobxonlik jamiyatimizning eng kerakli nuqtasi. Bugungi kun kitobxonini yo‘l-yo‘lakay yozilgan zerikarli asarlar bilan ushlab turish mushkul. Maqsadga tezroq yetishish, shiddatlilik, voqealar rivoji bugungi kun adabiyotining talabi. “Ishonch telefoni” ham zamonaviy, ham tarbiyaviy, ham ohanrabodek sehrlovchi asardir. Yozuvchi eng zaruriy voqealarni saralab, kitobxonni zeriktirmaslikning yo‘lini topgan.

Ishonch telefonlari O‘zbekistondagi har bir davlat tashkilotida bor. Fuqarolarning murojaatlari o‘rganilib, ularga yechim topish uchun xizmat qiluvchi operatorlar xalqning og‘irini yengil qilmoqda. “Ishonch telefoni” qissasida yozuvchi odamlarning murojaatlari – hasbi hollarini ramziy tarzda badiiylashtirgan. Chunki chinakam ishonch telefonlarida murojaatchining nomi oshkor etilmaydi. Qolaversa, davlat tashkilotlaridagi ishonch telefonlarida shaxsiy muammolar hal etilmaydi (ba’zi holatlarni hisobga olmaganda, shunda ham shaxsiy ma’lumotlar sir saqlanadi). Yozuvchi esa ishonch telefoni, operator orqali ramziy ma’noni ifoda etadi. Yuqorida aytganimizdek, hasbi holimizni aytadigan dardkash inson topilmaydi. Operator Mohidil Ismatova esa ana shunday qismatlar dardlarini, og‘riqlarini tinglovchi obrazdir.

Qissada uchraydigan qahramonlar hayoti real voqelikka asoslangan. Ularni operator qiz – Mohidil Ismatova obrazi birlashtirib turadi. O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov “Ishonch telefoni” qissasi haqida mulohaza qilar ekan: “Xayriddin Sultonning yangi qissasidan 23 ta izhor va iqror o‘rin olgan. Ularda ayni zamonaviy hayotimizning g‘oyatda rang-barang qirralari ifoda topgan. 23 ta arzi hol, 23 ta arzi dod, 23 ta arzi fazl, 23 ta arzi tiynat, 23 ta bir-biriga o‘xshamagan fe‘l-atvor, yevropacha usulda aytsak, 23 ta xarakter yarmarkasi. Shundoq, bu yangi qissa chin yarmarka, inson yarmarkasi” [4], - deya ta’rif beradi. Darhaqiqat, bugun boylikka, maishat-u yallolarga, yengil-yelpi hayotga almashilayotgan inson, diyonat, mehr-oqibat, hurmat kabi sof tuyg‘ular odamlar orasida ko‘tarildi. Farzandning ota-onasi uchun vaqti yo‘q, ota-ona farzandi tarbiyasi haqida qayg‘urmaydi. Do‘stlik tuyg‘usi niqoblandi. Yaqinlarimiz holidan xabar ololmaymiz, axir telefon bor-ku. Ora-orada yo‘qlab tursak bo‘ldi-da! Afsuski, bugun jamiyat mana shunday hayotda “kun kechirmoqda”. Yashamayapti, kun kechirmoqda. Qissada ana shu 23ta izhor va iqror so‘nggi pushaymon, ba‘zan dil og‘rig‘i sadosi bo‘lib yangradi.

Qissada turfa taqdirilar izhorlari va iqrorlari istifoda etiladi. Iqror va izhorlardan foydalanish adabiyotimiz uchun yangilik emas. Qalbidagi kechinmalarni izhor qilish, qalb og‘riqlari-yu gunohlariga iqror bo‘lish motivi nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki jahon adabiyoti durdonalarida ham ko‘plab uchraydi. Alisher Navoiy o‘zining do‘stlari va ustozlariga atab yozgan “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari izhor va iqrorning eng go‘zal namunalari sifatida e’tirof etiladi.

I. Tolstoyning jahon adabiyoti durdonasi bo‘lgan “Iqornoma”si ham xatolar tan olingan asardir. “Hayotingizdan albatta ma’no topishingiz kerak, yo‘qsa biror kun miyangizni yo‘qotib qo‘yishingiz hech gap emas” [5], - deb aytgan Tolstoy umrini sarhisob qilar ekan, taqdiri azal oldida ojiz ekanligini teran anglaydi. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov “Iqornoma” haqida mulohaza qilar ekan quyidagilarni keltiradi: “Iqornoma” hasbi hol janrida yozilgan asar. Jahon adabiyotida bunaqa asarlar unchalik ko‘p emas. Eng mashhurlari – Jan Jak Russo, Oskar Uayld kabi yozuvchilarniki. Ularning barida mualliflar o‘z hayotlari misolida inson faoliyatining eng murakkab jihatlari yoritadilar. Lekin ular biografik yoxud memuar asar emas. Tolstoy “Iqornoma”sining eng muhim fazilati shundaki, u asarda qaysi muammo

haqida bahs yuritmasin hamisha bu muammolarini o'z hayoti misolida tahlil qilgan va biror o'rinda samimiyatdan chekinib maqtanchoqlikka, manmanlikka, o'zini pardozlab ko'rsatishga uringan emas". [2;2]

XX asr o'zbek adabiyotida ham qalb kechinmalari, qahramonlarning iqrorlari shaklida yozilgan asarlardan eng go'zali, albatta, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romanidir. Roman qahramonlari ham ruhiy holatlaridan tortib qalb sitamlari-yu dard-og'riqlarigacha o'zlari hikoya qiladilar. "Ishonch telefoni" va "Ikki eshik orasi" romani voqealari, sujeti, kompozitsion tuzilishi bilan bir-biriga o'xshashdir. Har ikkala asarda ham muallif-roviy o'rni sezilmaydi. Asosiy sujet qahramonlar gardaniga yuklanadi. Har bir qahramon boshidan o'tganlarini batafsil hikoya qilib beradi. Farqli jihati, "Ishonch telefoni"da qahramonlarni tinglovchi qahramon – Mohidil Ismatova bor. "Ikki eshik orasi"da unday qahramon topilmaydi. Har ikkala asarda ham hasbi hollik yaqqol ko'zga tashlanadi. "Ikki eshik orasi" romani asosiy voqealari urush davrida ro'y bergan. Qahramonlarning hikoya ohangi, roman poetikasi ham shunga mos. O'tkir Hoshimov ham hattoki eng salbiy qahramonlarining ichki kechinmalarini to'kib solishi uchun "imkon beradi". Umar zakunchi hikoyasidan uning ham haqiqatlari bor ekanligini guvohi bo'lamiz: "Charchadim. O'lay agar charchadim. Ming lan'at urushigayam, raisligigayam! Bilmaganlar amaldor odamga oson tutadi. Yegani oldida, yemagani ketida, nima desa og'zining yeli deb o'ylaydi! Bo'lmagan gap! Amal kursisiga mindingmi, boshingga temir qalpoq, oyog'ingga temir paypoq kiyib olishing kerak. Ana shundagina o'zingdan yuqoriroqda turganlar boshingga tepsa, joning huzur qilganday iljayasan. Yo'q, faqat iljayishning o'zi kamlik qiladi. Oyog'ini yalaysan. Qancha qattiq tepsa, shuncha ishtaha bilan yalaysan. Yalamay ko'r-chi! Bir tepadi, ikki tepadi... uchinchisida chiqqan joyingga tiqib yuboradi [1;247].

Badiiy adabiyotning badiiy-konseptual funksiyasi har ikkala asarda ham ijodkor pozitsiyasidan kelib chiqib voqealanadi. Ijodkorning olam va odam haqidagi konsepsiyasi "Ikki eshik orasi" va "Ishonch telefoni" asarlarida serqirra va ko'lamdorligi bilan ahamiyatlidir. "Inson – Alloh taoloning eng buyuk yaratig'i", "inson qadri va sha'ni doim yuksak bo'lishi kerak", "uyat, or-nomus, hayo, andisha hamma zamonlarda ham oliy maqomda turishi lozim", "o'zingdan va o'zligingdan hech qachon kechmasliging shart" kabi falsafiy fikrlar yozuvchining badiiy asar poetikasiga oid teran mushohadalari natijasidir.

Xayriddin Sulton qahramonlari ham kechinmalari, taqdirlari bilan ko'rinish beradi-yu, ammo biror vaziyatni pardozlab ko'rsatishga urinishmaydi. Har bir hikoya boricha yozilganligi asar o'qishligini ta'minlagan.

"Biznes, ta'lim, bozor, pul, boyish, maishat, amal ketidan quvish, rang-barang qallobliklar, bosh-keti ko'rinmaydigan firibgarliklar, saroylar qurish, o'zini xorijga urish, xorijda axloqan fosh bo'lishlar, o'zini qashshoq-yo'qsil ko'rsatib marazmga berilishlar... Yozuvchi hikoya qilayotgan arz-u izhorlarda bularning hammasi to'la va eng oxirgi darajada tomir urib turibdi". Yozuvchi bejizga hikoyalarning nomlarini qahramonlar ismlari bilan atamaydi. Albatta, bunda ham ramziylik bor.

"Ishonch telefoni" qissasi qahramoni "ishonch telefonlari"ga aloqaga chiqib o'z ehtiyojlari, muammolarini aytadilar. O'z muammolarga chora istab qo'ng'iroq qiladilar. Karantin sababli faqat telefon orqali suhbatlashayotgan operator Mohidil Ismatova ularning dardlari, muammolari, hayotiy hikoyalarini tinglaydi. Sherigi Asal opa koronavirusga chalinganligi uchun yolg'iz o'zi tun-u kun ishlaydi. Murojaatlarning aksariyatini kerakli tashkilotlarga yo'naltiradi. Yozuvchi shu o'rinda aynan mana shu yangilik, ya'ni tashkilotlardagi ishonch telefonlarini badiiy adabiyotga olib kirdi. Zamonamizning kishilari hayotiy kechmishlarini hikoya qilishar ekan, muallif undan badiiy maqsadda foydalandi: "Inson borki, kechmishlari, o'y-fikrlari, orzu-armonlarini kimgadir izhor etishni xohlaydi. Topolsa, chorayi malham, topolmasa, ko'ngilni bo'shatib bir qur halovat topish. Xayriddin Sultonning "Ishonch telefoni" bu zamonaning, hukumat idoralarining rasmiy muloqot vositasi emas. U

garchi shakli bir bo'lsa-da, mazmun-mundarijasiga ko'ra adabiyotning "ishonch telefoni" – badiiy izhori, iqrori, ko'ngil maydonchasi..." [3; 6-7].

Odamzot HAZRATI INSON deb bejizga aytilmaydi. Asar badiiyatidan oladigan eng katta xulosamiz ham har doim INSON degan sharaflı nomga munosib qolish kerak. Asl hayotning mazmuni ham, maqsadi ham, maslagi ham insonga narsa yoki buyum deb qaramaslikda ko'rinadi. Yozuvchining qissadan muddaosi – bosh konsepsiyasi sifatida turfa taqdir manzaralarini olib chiqishi zahirida ham insoniylik mezonlarini unutmaslik lozim degan falsafiy mazmun yotibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoshimov O'tkir. Tanlangan asarlar. V jild: Ikki eshik orasi: Roman. – T.: "Sharq", 2012. – 576 b.
2. Lev Tolstoy. Iqornoma. Ozod Sharafiddinov tarjimasi. – T.: "Ma'naviyat" nashriyoti. 1998. – 45 b.
3. Xayriddin Sulton. Ishonch telefoni.– T.: "Mashhur-Press" nashriyoti, 2024.– 532 b.
4. <https://books.yandex.uz/books/sIOPwEq7/read-online>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqornoma#cite_note-1